

**Andijon davlat chet tillari instituti, Phd - Qozoqboyeva Dilfuza Ilhomjon qizi taqrizi ostida**

**G.Xakimova**

Samarqand viloyati, Urgut tumani 1-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## **ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA SAMARASI**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada yuqori sinflarda ona tili dars jarayonida interfaol usullardan foydalananishning ahamiyati o'rganiladi. O'quvchilarining faolligini oshiradigan turli xil metodlar, enerjayzerlar aks etgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol usullar, zamonaviy gadjetlar, innovatsion, enerjayzer, 3 4 5 6 7 metodi, kun-tun metodi.

**KIRISH.** Hozirgi kunda ona tili darsini juda zerikarli dars hisoblaydigan o'quvchilar oz emas. Chunki ona tili darslarida "qoida yodla, mashq bajar" usulda o'tib kelingan, hattoki kitoblarimiz ham shunday edi. Lekin bu usulda zamonaviy gadjetlar bilan o'sib kelayotgan yosh avlodga dars o'tib bo'lmaydi. Dars o'tilsa ham kutilgan natija bermaydi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalananish o'qituvchini izlanishga, o'quvchini o'z ustida ishlashga, fikrini bemalol ayta olishga umdaydi. Ma'lumki hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi bor, ularning aksariyati sinovdan o'tgan. Interfaol metodlar deganda 1-o'rinda hayolimizga keladigan narsa biz zamonaviyashgan maktab emasmiz, bizda elektron doska shunga o'xhash zamonaviy gadjetlar yo'q deb o'ylaymiz. Lekin oddiy A4 formatdagi qog'oz, oddiy rangli qog'ozlar va bo'rda foydalanih har xil metodlar bilan qiziqarli qilib dars o'tsa bo'ladi. Ona tili darslarida eng ko'p qo'llanadigan metod o'qituvchining bayoni metodi hisoblanadi. Bayoni metodi hisoblanadi. Bayon yordamida murakkabroq, ayniqsa, o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lмаган mavzular izohlanadi. Darsda o'рганидаган material o'quvchilarga qisman oldigi sinfda tanish bo'lsa yoki yangi mavzu biror tomoni bilan oldin o'tilgan materialga bog'lansa, darsda shbat metodidan foydalananadi. Suhbat o'quvchilar faolligini oshirad. Suhbat metodi o'quvchilarining nutq madaniyatini o'stirishda asosiy omil hisoblanadi. O'tilganlarni mustahkamlash maqsadida test savollarini yechish ham aytildi. Yil davomida, har chorakda o'quvchilarga o'zlarini tes tuzishga o'rgatishadi va ayni o'sha testlarni jamlab o'zlariga bersa bo'ladi. Dars yanada jonli va qiziqarli chiqadi.

### **MUHOKAMA.**

**INTERFAOL METODLAR.** Ta'lim berish jarayonida o'quvchi va o'qituvchi bilan bo'ladihan muloqotni, ular o'rtasidagi faollikni oshiradi. Bunday metodlarni qo'llash dars sifatini yaxshilaydi. Interfaol metodlar ta'limning asosiy mezonlari hisoblangan; norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materiallarini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvcilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlardan yaratikishi, jamoa bo'lib yoki yakka ishslash uchun topshiriqlar bajara olish.

Intefaol ta'lim usuli-har bir o'qituvch tomonidan mavjud resurslar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiriladi.

### **Interfaol meodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash.**

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsaatlarga muvosiq tanlanadi va tegishlu tayyorgarlik ko'rildi. Interfaol mashg'ulotda ishtiroy etish uchun o'quvchilarining tayyorgarliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtiroy

etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorgarlik, o'zaro hamkorlikda ishslash, mustaqil fikrlash, o'z fkrini erkin bayon qilish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

mMashg'ulotda vaqtidan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'limgusullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarini takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samrali bo'lishini ta'mnlaydi. **BIR QADAM.** Bu metod o'quvchilarni yanada ko'proq o'qishiga undaydi. O'qituvchi sinfga krib, salomlashib, yo'qlama qilgandan so'ng 5 ta o'quvchi o'rnidan turib sinfning oxiriga boradi. Ketma-ketlikda savol berish boshlanadi. Agar o'quvchilarning bergan javobi to'g'ri bo'lsa, bir qadam oldinga, noto'g'ri bo'lsa bir qadam orqaga yuradi. O'qituvchining stoliga bиринчи yetib borgan o'quvchilar rag'batlantiradi. Bu metod orqali o'quvchilarning diqqatini darsga qaratish mumkin. **3 4 5 6 7 METODI.** Bu metod uchun bizga bo'rning o'zi yetarli. Doskaga 3 ta, 4 ta, 5 ta, 6 ta, 7 tali kataklarni chizasiz. O'tlgan mavzuga oid so'zlardan 2 tadan misol yozishadi. Bu metodni refleksiya sifatida ishlatsa bo'ladi. Bu metodni darsning boshida o'tilgan mavzuni takrorlashda, darsning oxirida yangi mavzuni mustahkamlashda ishlatsish mumkin.

**OFTOB.** Bu metod uchun bizga doskaga yopishtirish uchun katta oftob surati va hamma bolaga yetadigan uzun-uzun sariq qog'ozdan qirqilgan qog'ozlar kerak bo'ladi. Guruh 2 ga bo'linadi. Ha bir bolaga sariq qog'ozchalar (quyosh nurlari) tarqatiladi, 2 daqiqa vaqt beriladi, qaysi guruh o'quvchilari ko'p ma'lumot yozib doskaga quyosh nurini yoritadi. Shunga qarab bolalar rag'batlantiriladi. **XATOSINI TOP.** Bunda hech qanday narsa kerakmas faqatgina bolalar topqirligi ziyrakligi kerak. Doskaga ustoz sana va mavzuni yozish vaqtida ataylab imloviy xatoga yo'l qo'yadi. Qaysi o'quvchi bиринчи xatoni topsa, o'sha rag'batlantiriladi va shundan so'ng hamma ustoz yana qayerda xato qiladilar deb kutishadi va ziyraklikni oshirishadi

**KUN-TUN.** Bu metodda hech narsa kerakmas. Tun deganda stolga qo'llarini qo'yib, qo'llar ustig boshlarini qo'yishadi, uxlagandek, ustoz savol beradi, hech kim javob bermaydi, hamma tayyor turadi, qachon ustoz kun deganda boshlarini ko'tarib, o'ng qo'llarini ko'tarib, o'ng qo'llarini ko'tarishdi. Eng bиринчи qo'l ko'targan o'quvchidan so'raladi. Kun demasdan boshini ko'targan yoki javobini aytib qo'ygan o'quvchi o'yindan chiqadi. Bu metod bilan o'tgan darsni takrorlashda ishlatsish bo'ladi. **MUAMMOLI VAZIYAT METODI.** Bu metodda o'quvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. Uning tuzilmasi quyidagicha

-muammoli vaziyat tavsifi beriladi

-guruhrular muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar

-guruhrular muammoli vaziyatning oqibatlari to'g'risida fikr yuritadilar

-guruhrular muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarnini ishlab chiqadilar

-to'g'ri yechimlar tanlab olinadi

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o'quvchilarni ziyrakligini oshiradi va darsga qiziqishini oshiradi. Dars mashg'ulotlari davomida ushbu metodlardan foydalanish o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va boshqa fanlarda qo'llash juda yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar o'tiladigan fanga qiziqishni oshirishga, o'zlarining shaxsiy fikrlarini ayta olishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika./prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.-T.:”O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010,-400 b.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.:O’qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
3. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o’yin-topishmoqladan foydalanish. T.:Musiqa.2009
4. N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyeva-Innovatsion ta’lim texnologilari va pedagogic komponentlik-O’UM Toshkent-2016
5. G’ulomova M.X., Sobirov N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari// Innovatsiya o’quv jarayonida (tezislar to’plami).-T.2009.